

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

SAFAROVA MAXDUMAXON JAXONGIRXON QIZI

**PRETSEDENT TUZILMALAR SIYOSIY DISKURSDA
FAOLLASHUVINING PRAGMATIK VA LINGVOMADANIY
XUSUSIYATLARI (nemis va o‘zbek tillari misolida)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
(filologiya fanlari)**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand - 2024

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Safarova Maxdumaxon Jaxongirxon qizi

Precedent tuzilmalar siyosiy diskursda faollashuvining pragmatik va lingvomadaniy xususiyatlari (nemis va o‘zbek tillari misolida)..... 3

Сафарова Махдумaxon Жахонгирxon қизи

Прагматические и лингвокультурологические аспекты функционирования прецедентных образований в политическом дискурсе (на материале немецкого и узбекского языков)..... 27

Safarova Makhdumakhon Jahongirhon qizi

Pragmatic and lingvocultural aspects of functioning precedent-related units in political discourse based on the german and uzbek languages 53

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 57

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

SAFAROVA MAXDUMAXON JAXONGIRXON QIZI

**PRETSEDENT TUZILMALAR SIYOSIY DISKURSDA
FAOLLASHUVINING PRAGMATIK VA LINGVOMADANIY
XUSUSIYATLARI (nemis va o‘zbek tillari misolida)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
(filologiya fanlari)**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/Fil2294 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy Kengash veb-sahifasi (www.samdhti.uz) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim tarmog'ining (www.ziynet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Kiselyov Dmitriy Anatolyevich
filologiya fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Bushuy Tatyana Anatolyevna
filologiya fanlari doktori, professor

Xoliyarov Lutfulla Tashkuvatovich,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01. raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «19» avgust soat 9⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand shahri, Bo'stonsaroy ko'chasi, 93-uy. Tel.: (99866) 238-29-37; faks: (998966) 210-00-18; e-mail: info@samdhti.ru).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (738 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand shahri, Bo'stonsaroy ko'chasi, 93-uy. Tel.: (99866) 238-29-37.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «31» iyul kuni tarqatildi.
(2024-yil «30» iyul da 6 raqamli reyestr bayonnomasi)



A.A.Yaxshiyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

G'.Q.Mirsanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

N.Z.Nasrullayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon xalqlari o'rtasidagi madaniy, iqtisodiy, siyosiy aloqalar tobora uzviylashib, mustahkamlanib borayotgan globallashuv davrida har bir milliy tilning koloriti, uning turli sathlarida namoyon bo'ladigan o'ziga xosliklarni ilmiy–amaliy tavsiflash ustuvor vazifaga aylanmoqda. Bunda til insonlar o'rtasidagi muloqotning muhim vositasi bo'lish bilan birgalikda undan foydalanuvchi xalqning madaniyati, qadriyatlarini, o'y–xayollari va qarashlarini o'zida mujassam etgan manba sifatida e'tirof etilishi lozim. Shu bois, jahon tilshunoslik fanining hozirgi muhim vazifalaridan biri turli soha vakillarining nutqiy faoliyati bilan bog'liq muammolarni o'rganishning innovasion usullarini ishlab chiqishdan iboratdir. Bunda asosiy e'tibor lisoniy hodisalarning til sohiblari madaniyati, dunyoqarashi hamda tafakkuri bilan uzviy aloqasiga qaratilgan. Oxirgi yillarda, shuningdek, diskurs va siyosiy faoliyat bog'liqligini tavsiflash zarurati kuchaymoqda. Shu asnoda siyosiy diskursning ontologik va gnoseologik mohiyatini belgilash hamda ushbu turdagi diskursning pragmatik va lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlash tilshunoslikning ustuvor vazifasiga aylangan.

Dunyo tilshunosligida lingvokognitologiya, pragmalingvistika, lisoniy madaniyatshunoslik, diskursologiya kabi zamonaviy yo'nalishlarning rivojlanishi natijasida tadqiqotchilar e'tiborini jalb qilayotgan masalalar doirasi sezilarli darajada kengayib bormoqda. Yetakchi ilmiy markazlarda turli ko'rinishdagi diskurslarning shakllanishi va nutqiy voqealanishi faol tadqiq qilinmoqda. Nutqiy hodisalarning keng ko'lamda o'rganilishi ularning tabiatini ochib berishga hamda ushbu hodisalarning o'ziga xos jihatlari farqlashga imkon yaratadi. Mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligi pretsedent birliklarning siyosiy diskurs tarkibida voqealanish xususiyatlarini tizimli ravishda o'rganish va izchil tavsiflash zarurati mavjudligi bilan izohlanadi.

Hozirgi paytda mamlakatimizda turli sohalarida istiqbolli rejaga ega islohotlar olib borilmoqda. Dunyoning ko'plab mamlakatlari bilan ijtimoiy-siyosiy va madaniy-iqtisodiy munosabatlarning mustahkamlanishi, siyosiy va madaniyatlararo aloqa xususiyatlari tadqiq va tahlili ijtimoiy-madaniy taraqqiyotning muhim omili ekanligini ko'rsatdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, bugun O'zbekiston dunyo siyosatida muhim markazlardan biriga aylandi va bu xalqaro siyosiy hamjamiyat tomonidan e'tirof etilgan.¹ Ushbu sharoitda zamonaviy ilm–fan yutuqlarini amaliyotga keng miqyosda tatbiq etish imkoniyati kengayadi, chunki bunday masala, ayni paytda, yurt farovonligini yuksaltirish, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini barqaror rivojlantirishning hal qiluvchi omiliga aylanmoqda. Shu asnoda, nemis va o'zbek tillarida siyosiy diskursning tuzilishi va faollashuvini

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisga murojaatnomasi: <https://review.uz/uz/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-2023-yil-uchun-murojaatnomasi-toliq-matn>

chog'ishtirma tarzda o'rganish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb ilmiy muammolaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 21-oktyabr 2019-yildagi PF-5850-sonli "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 8-oktyabr 2019-yildagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari, 19-may 2021-yildagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 10-fevral 2020-yildagi 75-son "O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazi faoliyatini tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot ishi muayan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq ravishda bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Pragmalingvistika va lingvomadaniyatshunoslik sohalariga taalluqli muammolar J.Mey, G.Leech, L.Cummings, S.Schmidt, D.Wunderlich, I.P.Susov, A.Yu.Maslova, G.G.Matveyeva, A.Wierzbicka, G.Palmer, N.F.Alefrenko, N.Ye Boldirev, V.V.Vorobyev, V.V. Krasnix, A.T.Xrolenko, M.L.Kovshova kabi xorijiy olimlar ishlarida muhokama qilingan.² Mamlakatimizda ushbu yo'nalish Sh.Safarov, N.Mahmudov, M.Hakimov, D.U.Ashurova, M.R.Galiyeva, D.Xudoyberganova, Sh. Usmonova, Sh. Maxmaraimovalar tomonidan rivojlantirilgan.³

² Mey J. Pragmatics: An introduction. – Oxford: Blackwell, 2001. – 231 p.; Leech G.N. Principles of Pragmatics. – L.: Longman, 1983. – 250 p.; Cummings L. Pragmatics. A multidisciplinary perspective. – Edinburgh: Edinburgh university press, 2005. – 336 p; Schmidt S. Texttheorie/Pragmalinguistik// Lexikon der germanistischen Linguistik. – Tübingen, 1973 – S. 233-244; Wunderlich D. Studien zur Sprachakttheorie. – Frankfurt am Main, 1976. – 203 S.; Сусов И.П. Лингвистическая прагматика. – Винница, 2006. – 138 с.; Маслова А.Ю. Введение в прагмалингвистику. – М.: Наука, 2010. – 147 с.; Матвеева Г.Г., Ленец А.В., Петрова Е.И. Основы прагмалингвистики. – М.: Флинта, 2014. – 232 с.; Wierzbicka A. Cross-cultural pragmatics: The semantics of human interaction. – Berlin: Language Arts and disciplines, 1991. – 502 p.; Palmer G. Towards a theory of cultural linguistics. – Texas: University of Texas press, 1996. – 360 p.; Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология. Ценностно-смысловое пространство языка. – М.: Флинта, 2010. – 224 с.; Болдырев Н.Е. Введение в теорию межкультурной коммуникации. – М.: Русский язык, 2009. – 141 с.; Воробьев В.В. Лингвокультурология: теория и методы. – М.: Изд-во РУДН, 2008. – 240 с.; Красных В.В. Этнопсихоллингвистика и лингвокультурология. – М.: Гнозис, 2002. – 284 с.; Хроленко А.Т. Основы лингвокультурологии. – М.: Флинта, 2009. – 184 с.; Ковшова М.Л. Лингвокультурологический метод во фразеологии. Кодк культуры. – М.: URSS, 2016. – 456 с.

³Safarov Sh. Pragmalingvistika. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – 300b.; Mahmudov N. Til tilsimi tadqiqi. – T.: Mumtoz so'z, 2017. – 176 b.; Hakimov M. Pragmalingvistik tadqiqotlar tarixi. – Farg'ona: "Farg'ona" nashriyati, 2020. – 148 b.; Ashurova D.U., Galieva M.R. Cultural linguistics. – T.: Vneshinvestprom, 2019. – 208

Turli mamlakatlar tilshunoslari mazkur yoʻnalishdagi tadqiqotlarni amalga oshirishib, alohida masalalar tahlili bilan mashgʻul boʻlishgan. Jumladan, L.Raupova polipredikativ birliklarning dialogik nutqda namoyon boʻladigan sosiopragmatik xususiyatlarini tahlil qilgan boʻlsa, M.Qurbonovanning dissertatsiyasida bolalar nutqining pragmatik belgilari oʻrganilgan. Shuningdek, A.Pardayev yordamchi soʻzlarning pragmatik imkoniyatlarini yoritishga harakat qilgan boʻlsa, A.Shomahmudova esa nutqiy muloqotning sosiopragmatik jihatlari bilan qiziqadi.⁴ Oxirgi yillarda chogʻishtirma lingvomadaniyatshunoslik yoʻnalishidagi ilmiy ishlarning soni koʻpayib bormoqda.⁵

Bir qator xorijiy va mahalliy tilshunoslar ishlarida diskurs hodisasi bilan bogʻliq muammolar yechimini topishga harakat qilingan.⁶

Siyosiy diskursning turli jihatlari T.A. van Dijk, R.Wodak, J.Lemke, T. Niehr, A.Füting, E.V.Budayev, A.P.Chudinov, O.I.Vorobyevalarning tadqiqotlarida pragmalingvistika va lingvomadaniyatshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilingan boʻlsa,⁷ M.R.Jeltuxina siyosiy diskursda komik mazmun ifodalanishi bilan qiziqqan. Xuddi shuningdek, Ye.A.Repinaning dissertatsiyasi ushbu turdagi diskursning psixolingvistik tadqiqiga bagʻishlangan. V.A.Maryanchik, oʻz navbatida, siyosiy diskursning aksiologik tarkibini aniqlashga harakat qilgan.⁸ Mahalliy olimlardan N.S.Zubareva va N.N.Fayziyevalar oʻz ishlarining tadqiq

p.; Xudoyberganova D. Til. Taffakur. Madaniyat. – T.: Nodirabegim, 2020. – 120 b.; Usmonova Sh. Lingvokulturologiya. T.: TDUA universiteti, 2019. – 245 b.; Mahmaraimova Sh. Lingvokulturologiya. – T.: Choʻlpon nomidagi nashriyot, 2017. – 164 b.

⁴ Raupova L.R. Dialogik diskursdagi polipredikativ birliklarning sotsiopragmatik tadqiqi. . Filol. fan. dokt.... diss. – T., 2017. – 261 b.; Qurbonova M. Oʻzbek bolalari nutqning pragmatik xususiyatlari. – T.: Akademnashr, 2018.; Pardayev A.B. Oʻzbek tili yordamchi soʻz turkumlarining lisoniy tizimdagi oʻrni va lingvopragmatikasi. . Filol. fan. dokt.... diss. avtoref. – T., 2017. – 26 b.; Shomaxmudova A.F. Nutqiy aktlar kontekstida hurmat tamoyillarini voqelantiruvchi sotsiopragmatik omillar (ispan tili misolida). Filol. fanlari dokt.(DSc) diss. avtoreferati. – T., 2023. –72 b.

⁵ Алимжанова Г.М. Сопоставительная лингвокультурология: взаимодействие языка, культуры и человека. – Алматы, 2010. – 300 с.; Воробьев В.В., Полякова Г.М. Сопоставительная лингвокультурология как новое научное направление// Вестник Российского университета дружбы народов. Серия Русский и иностранный языки. – М., 2012. №2. – С. 13.

⁶ Brächer M. (ed.) Lacanian Theory of Discourse: Subject, Structure and Society. – New York, 1994. – 216 p.; Brunner G., Gräffen (Hrsg.). Texte und Diskurse: Methoden und Forschungsergebnisse der funktionalen Pragmatik. – Opladen, 1994; Longacre R. The grammar of discourse. – New York: London, 1983. – 212 p.; Schiffrin D. Approaches to discourse. – Oxford, Cambridge, MA, 2003. – 407 p.; Moilanen M., Viehweger D., Carlston L. (Hrsg.). Zugänge zur Text- und Dialoganalyse. – Hamburg, 1994. – 276 S.; Арутюнова Н.Д. Дискурс // Лингвистический энциклопедический словарь. – М.:Сов.энциклопедия, 1990. – С. 136-137; Макаров М.Л. Основы теории дискурса. – М.: Гнозис, 2003. – 280 с.; Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002. – 476 с.; Normuradova N.Z. Ingliz badiiy diskursida antropotsentrimning verbal eksplikatsiyasi. Filol. fan. dokt.... diss. avtoref. – T., 2020.- 78 b.

⁷ Dijk T.A. van (ed.) Discourse as Structure and process. – London, 1997. – 356 p.; Wodak R. Disorders of discourse. – London; New York, 1996. – 200 p.; Lemke J. Textual politics: Discourse and social dynamics. – London, 1995. – 210 p.; Niehr Th. Einführung in die Politolinguistik. – Göttingen: UTB, 2014. – 191 S.; Füting A. Politische Kommunikation in Deutschland: eine typologische Längsschnittanalyse individueller politischer Kommunikation. TLM-Schriftenreihe (24. Band). – Vistas, 2013. – 347 S.; Будаев Э.В., Чудинов А.П. Современная политическая лингвистика. – Екатеринбург, 2006.- 252 с.; Воробьева О.И. Политический язык как вторичная языковая система: семантика, таксономия, функции. Автореф.дис...докт. филол.наук. – М., 2000. – 39 с.

⁸ Желтухина М.Р. Комическое в политическом дискурсе XX века: русские и немецкие политики. – М. – Волгоград, 2000. – 264 с.; Репина Е. А. Психолингвистические параметры политического текста. Автореф.дис...канд. филол.наук. – М., 2001. – 24 с.; Марьянчик В.А. Aksiologicheskaya struktura media-politicheskogo teksta (lingvostilisticheskii aspekt). Diss...dokt. fилол. nauk. – Архангельск, 2013. – 381 с.

predmeti sifatida ingliz va o‘zbek siyosiy diskursida frazeologik intensivatorlar hamda evfemizmlar voqelanishining kognitiv-pragmatik xususiyatlarini tanlashgan⁹.

So‘nggi paytlarda kognitiv-pragmatik yo‘nalish taraqqiyoti hamda lingvomadaniyatshunoslikka oid muammolarning lingvistik tahlil doirasiga faol jalb qilinishi natijasida pretsedentlik hodisasi tadqiqiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Shu jumladan, Yu.N.Karaulov, V.V.Krasnix, G.G.Slishkin, D.B.Gudkov, M.R.Galiyeva, D.Xudoyberganova, L.U.Muzafarovalarning tadqiqotlarida pretsedent birliklarning eng muhim belgilari aniqlangan¹⁰.

Shuning bilan birgalikda, pretsedent tuzilmalarning o‘zbek va nemis siyosiy diskurslarida faollashuvining pragmatik jihatlari hozircha maxsus o‘rganilmaganligini qayd etish joiz.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Samarqand davlat chet tillar instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Diskursiv faoliyatning pragmatik tahlili” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi nemis va o‘zbek siyosiy diskursida faollashadigan pretsedent tuzilmalarning kommunikativ-pragmatik xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

siyosiy diskursning zamonaviy tilshunoslikdagi tahlil darajasi va yo‘nalishlarini o‘rganish hamda tadqiqot istiqbolini belgilash;

“pretsedentlik” tushunchasi va uning tarkibiy qismlari mundarijasini tavsiflash hamda pretsedent tuzilmalar shakllanish mexanizmlarini aniqlash;

pretsedent tuzilmalarning siyosiy diskurs tarkibida tutgan o‘rni va vazifalarini kommunikativ-pragmatik nuqtai nazardan izohlash;

nemis va o‘zbek tillarida bajariladigan siyosiy muloqot jarayonida pretsedent hodisalar faollashuvida lingvomadaniy axborotning ahamiyati va mohiyatini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida o‘zbek va nemis tillaridagi siyosiy diskurslarda pretsedent tuzilmalar voqelanishini aks ettiruvchi vaziyatlar namunalari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini pretsedent birliklarning siyosiy diskursda namoyon bo‘ladigan pragmatik va lingvomadaniy xususiyatlari tashkil qiladi.

⁹Zubareva N.S. Siyosiy diskursda frazeologik intensivatorlarning kognitiv-pragmatik xususiyatlari (ingliz, rus va o‘zbek tillari misolida). Filol. fan. bo‘yicha falsafa dokt. diss. avtoreferati. – T., 2023. – 61 b.; Fayziyeva N.N. Siyosiy diskurs evfemizmlarning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari (ingliz va o‘zbek tillari materiallari asosida). Filol. fanlari bo‘yicha falsafa dokt.(PhD) diss. avtoreferati. – T., 2023. – 58 b.

¹⁰ Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. – М.: Наука, 1987. – 263 с.; Красных В.В. Этнопсихоллингвистика и лингвокультурология. М.: Гнозис, 2002. – 284 с.; Слышкин Г.Г. От текста к символу: лингвокультурные концепты прецедентных текстов в сознании и дискурсе. – М.: Academia, 2000. – 128 с.; Гудков Д.Б. Теория и практика межкультурной коммуникации. – М.: Гнозис, 2003.- 288 с.; Галиева М. Р. Теоллингвистика. Истории, направления, перспектива – Т.: VneshInvestProm, 2018. – 260 с.; Xudoyberganova D. Til. Taffakur. Madaniyat. – T.: Nodirabegim, 2020. – 120 b.; Muzafarova L.U. Bilim tuzilmalarining badiiy matn intertekstual ko‘lamida konseptuallashuvi. - Filol. fan. bo‘yicha falsafa dokt. ... diss. avtoyef. – T., 2022. – 58 b.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tavsifiy tahlil, pretsedent birliklarni ajratish va tanlash, kommunikativ-pragmatik hamda madaniyatlarni qiyoslash kabi umumiy va xususiy tahlil usullaridan foydalanilgan. Bundan tashqari, muloqot matniga taalluqli ma'lumotlar diskursiv hamda kontekstual tahlilga tortilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

diskurs tilshunosligi doirasida muhim ahamiyatga molik va lisoniy-tafakkur mahsuli sifatida voqelanadigan hodisalarni tavsiflash imkoniyatiga ega bo'lgan diskurs turlari, kommunikativ strategiya, nutqiy ta'sir, manipulyatsiya kabi tushunchalarning nutqiy muloqot tizimi doirasida namoyon bo'ladigan lingvistik mohiyati ochib berilgan;

“pretsedentlik” tushunchasi ontologik–gnoseologik mazmunining tavsifi orqali pretsedent birliklarning alohida tillarga xos pragmatik va kommunikativ maqomi belgilanib, ularning siyosiy diskurs muhitida eksplitsit va implitsit ko'rinishlarda shakllanish mexanizmlari aniqlangan;

pretsedent tuzilmalarning siyosiy diskursda bajaradigan vazifalarini kommunikativ strategiya nuqtai nazaridan farqlash va pragmatik guruhlariga tasniflash usuli funksional – mantiq hamda lingvostilistik jihatdan takomillashtirilgan;

nemis va o'zbek tillaridagi siyosiy muloqot jarayonida pretsedent birliklardan foydalanishda lingvomadaniy ma'lumotlarning ahamiyati lisoniy tanlovning sotsiopragmatik xususiyati sababli madaniyatlararo kommunikatsiya sharoitida alohida ekanligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

iqtibos, qanotli so'zlar, aforizm, paremiya va frazeologizmlar kabi pretsedent tuzilmalardan nemis va o'zbek siyosiy diskursida tinglovchilarga nutqiy ta'sirni kuchaytirish, ulardan bo'lajak harakatga undash maqsadida tez-tez foydalanilishi dalillangan;

zamonaviy tilshunoslik fanining siyosiy diskurs tuzilishi va tarkib, pragmatik tabiati hamda lingvomadaniy maqomini tavsiflashga yo'naltirilgan metodologik-nazariy asosi takomillashtirilgan va yangi ma'lumotlar bilan boyitilgan;

pretsedent birliklar va ushbu birliklarning nutqiy qurilmalardagi kommunikativ-vazifaviy xususiyatlari tadqiqi jarayonida olingan natijalar aniq misollar tahlili orqali dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchiligi ishda ilmiy manbalarda sinovdan o'tgan nazariy qarashlar, tahlil usullari, ma'lumotlarga tayanilganligi, maqsad va vazifalarining aniq shakllantirilganligi, tadqiqot usullarining til materiallari va ilmiy izlanish mohiyatiga mos ravishda tanlanganligi, erishilgan xulosalarning nemis va o'zbek tillari tizimiga xos xususiyatlarga muqobil ekanligi, ushbu xulosalarning ilmiy asoslanganligi, hamda natija, tavsiyalarning amaliyotga joriy qilinganligi vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati pretsedentlik nazariyasi va siyosiy muloqot tilshunosligining takomillashuvida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, tadqiqotning ilmiy ahamiyati uning natijalaridan diskurs tahlili, chog'ishtirma tilshunoslik, pragmalingvistika, lingvomadaniyatshunoslik sohalari bo'yicha kurslarni nazariy jihatdan boyitish, turli yo'nalishlar bo'yicha maxsus

kurslarni tayyorlash, shuningdek, ilmiy izlanishlar olib borishda foydalanish mumkinligida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, eng avvalo, ulardan siyosiy muloqot sohasida mutaxassislarni tayyorlashda foydalanish imkoniyati mavjudligida ko‘rinadi. Tahlil qilingan material chog‘ishtirma tilshunoslik, matn tilshunosligi va pragmalingvistika kabi fanlarni o‘qitishda qo‘l keladi. Ushbu materialdan, shuningdek, nemis va o‘zbek tillarini o‘qitish uchun zarur bo‘lgan innovatsion o‘quv adabiyotlari, dasturlarini yaratish jarayonida foydalanish tavsiya qilinadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Pretsedent tuzilmalarning nemis va o‘zbek tillaridagi siyosiy matnlarda faollashuvining nazariy hamda amaliy jihatdan o‘rganish yuzasidan olingan ilmiy natijalar va amaliy takliflar asosida:

diskurs tilshunosligi doirasida muhim ahamiyatga molik va lisoniy-tafakkur mahsuli sifatida voqelanadigan hodisalarni tavsiflash imkoniyatiga ega bo‘lgan diskurs turlari, strategiya, nutqiy ta’sir, manipulyatsiya kabi tushunchalar mohiyati funksional janr ko‘rinishida shakllanishiga doir xulosalardan Yevropa Ittifoqining Erasmus + 561624+EPP-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS+CBHE IMEP: “O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimini jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish” nomli innovatsion loyiha doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2024-yil 25-martdagi 631/02-son ma’lumotnomasi). Natijada o‘qituvchi va talabalarning tilshunoslik, muloqot madaniyati hamda pragmatik kompetensiya sohasidagi bilim zahirasi boyigan, bu esa, o‘z navbatida, ta’lim tizimini xalqarolashtirishga xizmat qilgan;

“pretsedentlik” tushunchasi ontologik–gnoseologik mazmunining tavsifi orqali pretsedent birliklarning milliy tillarga xos pragmatik va kommunikativ mohiyatini belgilash hamda ularning siyosiy diskurs muhitida eksplitsit va implitsit tarzda shakllanish mexanizmlarini o‘rganish jarayonida olingan natija va xulosalardan Xitoy xalq Respublikasining Shimoliy-Sharqiy universitetida (Northwest University, China) bajarilgan “Research on expanding the international influence of Silk Road Culture and promoting the sustainable development of heritage tourism”, programme I-programme of national research development system DL2022040003L “The belt and Road innovative exchange programme for foreign experts” dasturi doirasida foydalanilgan (Xitoy xalq Respublikasi Northwest universitetining 28-fevral 2024-yil 710127-son ma’lumotnomasi). Natijada milliy meros namunalarini identifikatsiyalash va tizimli ravishda tavsiflash imkoniyatlari takomillashtirilgan hamda manbalar zahirasi to‘ldirilgan;

pretsedent tuzilmalarning siyosiy diskursda bajaradigan vazifalarini kommunikativ strategiya nuqtai nazaridan farqlash va pragmatik guruhlariga tasniflashda faollashadigan dalillash, ishontirish, uqtirish, harakatga undash bilan bog‘liq kommunikativ-pragmatik vazifalarini aniqlashga yo‘naltirilgan usuldan Project N598340-EPP-1-2018-1-ES-EPPKA2-CBHE-JP University Cooperation Framework for Knowledge-Transfer in Central Asia and China (UNICAC) loyihasi doirasida foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy Universiteti 4-aprel 2024-yil 04/11-2603-son ma’lumotnomasi). Natijada qo‘llanilgan metod “Matn tahlili”, “Diskursologiya”, “Pragmalingvistika” kabi fanlar nazariy asoslarini mukammallashtirish va kengaytirishga xizmat qilgan;

nemis va o'zbek tillaridagi siyosiy muloqot jarayonida pretsedent birliklar faollashuvida lingvomadaniy axborotning muhimligi madaniyatlararo kommunikatsiya sharoitida alohida ekanligi hamda lisoniy tanlovning sotsiopragsmatik xususiyatlarini inobatga olish zarurati bilan bog'liq xulosalardan "Sharh va tahlil" axboriy-analitik teledasturi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 29-mart 2024-yildagi 01-07/59-son ma'lumotnomasi). Natijada ushbu teleko'rsatuvlar uchun tayyorlangan materiallar mazmunan takomillashtirilib, ilmiy ma'lumotnomalar bilan boyitilishiga erishilgan va ko'rsatuvning ilmiy-ommaboplik xususiyati oshgan. Shuningdek, siyosiy diskursning pragmatik xususiyatlari haqidagi ma'lumotlar ijodiy jamoaning mavzu doirasida chuqurroq mulohaza yuritishi uchun zamin yaratgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta xalqaro va 3 ta respublika miqyosidagi konferensiyalarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy maqola chop etilgan. Shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini e'lon qilish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola (8 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, asosiy qismi 128 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi, uning respublika fan va texnologiyalarning ustuvor yo'nalishlari bilan aloqadorligi asoslangan, dissertatsiyaning maqsad va vazifalari, obyekt va predmeti hamda materiali tavsiflangan. Shuningdek, tadqiqot natijalarining ilmiy yangiligi hamda amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilish, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Siyosiy diskursni o'rganishning nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida tilning kasbiy (maxsus) tagtizimi ko'rinishdagi siyosiy diskursning maqomi belgilanib, uning o'ziga xos xususiyatlari va tahlil metodologiyasi aniqlangan hamda siyosiy diskursning xususiyatlari tavsiflanib, ushbu xususiyatlar doirasida nutqiy ta'sir ko'rsatish vazifasi asosiy o'rinni egallashi ta'kidlangan.

Zamonaviy tilshunoslikda til hodisasi struktur tuzilish va kommunikativ vazifa yaxlitligida talqin qilinadi. Bu esa lisoniy birliklar ishtirok etadigan muloqotning asosiy mexanizmlarini ajratishni taqozo etadi, zero har bir lisoniy birlik muloqot jarayonida o'ziga xos vazifani bajaradi. Ayni paytda, til, milliy-madaniy hodisa sifatida, faqat ma'lum bir muhitda mavjud bo'ladi va mo'ljaldagi vazifasini bajaradi. Shu bois, tildan jamiyatning alohida qatlamlari, maxsus yoki kasbiy guruhlarida foydalanish masalasi tadqiqi alohida ahamiyatga ega. Maxsus

yoki kasbiy muloqot bilan bog‘liq muammolar tadqiqi u yoki bu kasb vakillari nutqiy faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini hamda kasbiy muloqotni tashkillashtirishning kognitiv-pragmatik shart-sharoitlarini old o‘ringa suradi.

Tilshunoslik sohasida struktur paradigmadan kommunikativ-funksional yondashuvga o‘tish “Maxsus matn lingvistikasi” (Fachtextlinguistik) nomini olgan yangi yo‘nalish shakllanishiga turtki berdi. Ushbu yo‘nalish doirasida maxsus matnlar ularga muqobil kommunikativ freymlar ko‘lamida tahlil qilinadi¹¹. Ushbu yo‘nalishning asl maqomi borasida hozircha aniq to‘xtamga erishilmagan bo‘lsa-da, lekin uning tahlil obyekti “maxsus til-matnlarda – muloqot vaziyatlari va madaniy shartlanganlik” ko‘rinishida belgilangan¹². Ma’lumki, ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, diplomatiya va siyosiy faoliyat kabilar maxsus turdagi faoliyat sohalaridir va “maxsus maqsadga yo‘naltirilgan tillar” ushbu sohalarda muloqot yuritish vositasi rolini o‘taydi.

O‘ziga xos tushunchalarni nomlovchi birliklarning mavjud bo‘lishi barcha turdagi maxsus tillar uchun umumiy xususiyatdir. Ushbu turdagi tillar lug‘at tizimining farqli xususiyatlaridan biri, jumladan, abbreviaturalarning to‘liq nomlar bilan bir xilda (masalan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti - BMT) qo‘llanishida hamda ularning nafaqat nutqda, balki til tizimida me‘yoriy o‘rinlashuvda namoyon bo‘ladi. Maxsus maqsadli tillarning yana bir farqli jihati uning alohida shaklga ega bo‘lish, standartlashuvga moyilligida ko‘rinadi.

U yoki bu ko‘rinishdagi maxsus maqsadli tillarni ajratishning eng muhim sharti maxsus matnlarning mavjudligidir. Maxsus matn tarkibida uning ma’lum bir kasbiy faoliyat sohasiga taalluqli ekanligiga ishora qiluvchi alohida bo‘lak ishtirok etadi. Shu yo‘sinda, maxsus maqsadli til qandaydir bir o‘z- o‘zidan mavjud tag-tizim bo‘lmasdan, balki alohida diskurs sohasida faollashadi. Kasbiy diskurs maxsus tilning tabiiy namoyishidir.¹³

Maxsus matnlarni tavsiflashda quyidagi qoidalarga amal qilish lozim:

1) maxsus matnlar ijtimoiy vaziyat va mavzu bilan bog‘liq omillar hamda struktur-shakliy ko‘rsatkichlarning o‘zaro munosabati doirasida yuzaga keladigan murakkab lisoniy tuzilma sifatida qaraladi;

2) maxsus matnlarning botiniy xususiyatlari ularning semantik, stilistik va sintaktik tamoyillar negizida qurilishida namoyon bo‘ladi;

3) maxsus maqsadli matnlar tahlili jarayonida adresant va adresat, muloqot mavzusi hamda muloqotning maxsuslashuv darajasi o‘rtasida o‘zaro munosabatni inobatga olish talab qilinadi.¹⁴

Ko‘pqirrali hodisa sifatida qaraladigan maxsus matnni o‘rganishda tilshunoslik va boshqa fanlarga oid tahlil usullariga murojaat qilinadi. Mazkur tadqiqotda siyosiy diskurs faoliyat nazariyasi doirasida ko‘rib chiqiladi. Siyosiy diskurs ko‘p jihatli va murakkab hodisa sifatida ijtimoiy-siyosiy muloqot

¹¹ Hoffmann L. Kommunikationsmittel Fachsprachen. – Tübingen: Narr, 1995. – S. 56.

¹² Kalverkämper H. Fachsprache und Fachsprachenforschung//Fachsprachen-Languages for Special Purposes. Ein Internationales Handbuch für Fachsprachenforschung und Terminologiewissenschaft. – Berlin: De Gruyter, 1998. – S. 50.

¹³ Gläser R. Standortbestimmung einer Fachtextlinguistik//Fachsprachliche Textlinguistik. – Berlin, 1995. – S. 3.

¹⁴ Baumann K. Integrative Fachtextlinguistik. – Tübingen: Narr, 1992. – S. 10.

namunasidir va nutqiy tafakkur faoliyatining alohida mahsuli maqomida tavsiflanishi lozim.

Nutqiy faoliyatning alohida turi bo'lgan siyosiy nutqni insonlar va jamoalar munosabatlari umumiy taraqqiyoti tarixi bilan bog'liq holda o'rganish va talqin qilish mumkin. Bu esa, siyosiy diskurs tushunchasini jamiyatning madaniy, iqtisodiy, diniy, davlat boshqaruvi faoliyatidan ajratgan holda qandaydir bir mustaqil holda mavjud bo'lgan nutqiy faoliyat turi maqomida talqin qilish noto'g'ri ekanligini anglatadi.

So'nggi yillarda siyosatshunoslik, jamiyatshunoslik, kommunikativ faoliyat sohalari doirasida yangi ko'rinishdagi ijtimoiy-gumanitar tadqiqot sohasi, ya'ni siyosiy kommunikatsiya sohasi shakllandi. Alohida shaxslararo muloqotda axborot ma'lum bir shaxsga yo'naltiriladi, jamoaviy muloqot sharoitida esa, axborotni qabul qiluvchilarning shaxsi noma'lum bo'lishi mumkin.¹⁵ Demak, muloqot siyosatning markaziy mexanizmini tashkil qiladi.

Siyosiy diskurs tabiati bilan bog'liq muammolarning ko'pchiligini pragmalingsvistik nuqtai nazardan yondashgan holda yechish mumkin. Tilshunoslar odatda siyosiy diskursning quyidagi pragmasemantik jihatlarini qayd etadilar: 1) so'zlovchi yoki siyosatchining muloqot jarayonidagi roli; 2) ma'lum qilinayotgan axborotning tarkibi va mazmuni; 3) ma'lum pragmatik mo'ljalga yo'naltirilganlik; 4) baholash; 5) an'anaviylik; 6) ijtimoiy-madaniy muhit.

Siyosiy diskurs shakllanishida konvensionallik yetakchi rollardan birini bajaradi. Frazologizm, klishe va boshqa andazali tuzilmalar, shuningdek ushbu tadqiqotda tahlil qilinayotgan pretsedent birliklar ma'lum bir dunyoqarash, mafkura targ'ibotiga xizmat qiladi. Intertekstuallik ham siyosiy diskursning muhim xususiyatidir, zero uning vositasida ideologema, ijtimoiy mo'ljal va qiymat kabilar aks topadi. Intertekstual kiritmalar va pretsedent hodisalarga murojaat qilish siyosiy muloqotning barcha turlariga xos bo'lib, ushbu holat formal va mazmuniy sathlarda bir xilda namoyon bo'ladi. Siyosiy til so'zlovchi uchun maqsadga erishishning asosiy quroli hisoblanadi. Shu sababli, siyosiy muloqot ishirokchilari doimiy ravishda yuqori darajadagi dalillash imkoniyatiga ega nutqiy strategiyalardan foydalanishga harakat qilishadi. Siyosiy diskursda pretsedent tuzilmalarning keng ko'lamda faollashuvi aynan shu omil bilan izohlanadi.

Siyosiy muloqotning struktur, semantik va vazifaviy jihatlarini o'rganish uchun yangi ko'rinishdagi tahlil usullarini jalb qilish zarurati tug'iladi. Lisoniy hodisalar tadqiqining eng yangi usullaridan biri diskursiv tahlil ekanligi ma'lum. Hozirgi paytda ushbu turdagi tahlil usuli siyosiy matnlar tadqiqiga keng miqyosda tatbiq qilinmoqda.

Siyosiy muloqotning pragmatik samarasi uning ta'sir ko'rsatish (manipulyatsiya qilish) imkoniyatida namoyon bo'ladi va ushbu imkoniyat siyosiy diskursning asosiy maqsadini voqelantiruvchi xususiyatga aylanadi. Siyosiy muloqot manipulyativ xarakterining mohiyati adresatga ta'sir ko'rsatish niyati bilan bog'liq. Mazkur niyat ko'pincha pretsedent tuzilmalardan foydalanish orqali

¹⁵ Bonfadelli H. Medienwirkungsforschung. Grundlagen und theoretische Perspektiven. 3. Überarbeitete Auflage. - Konstanz: UVK, 2004. - S. 22.

amalgam oshiriladi. Qiyoslang: *Uy-joy siyosatida ijtimoiy adolat ustuvor bo'lmog'i kerak. Ayniqsa, xalqimiz uyli-joyli bo'lishni munosib hayot kechirishning asosiy shartlaridan deb biladi. "Uyi borning o'yi bo'lmaydi", "Uy - vatan ichra vatan", „O'z uyim - o'lan to'shagim“ singari maqollari, naqlar jamiyatimizga shu qadar singib ketganki, hali murg'ak o'g'liga ezgu niyat bilan imorat solish uchun terak ekishdek odatlarimiz zamonlar o'zgarsa-da, unutilgani yo'q.* (Zarafshon, 2023, 12-iyun).

Diskursning ushbu parchasida so'zlovchi-muallifning saylovchilarni ko'rsatilgan nomzod dasturining istiqboliga ishonirish maqsadi yashiringan. Bunday ta'sir ko'rsatish yoki manipulyatsiya harakatini bajarishga *"Uyi borning o'yi bo'lmaydi", "Uy - vatan ichra vatan", „O'z uyim - o'lan to'shagim“* kabi paremiologik birliklarni qo'llash orqali erishilgan.

Ta'sir ko'rsatish, pragmatik samarasidagi farqiga nisbatan, **asosiy** va **yordamchi** turlariga ajraladi. Asosiy ta'sir tinglovchini biron-bir harakatga undash maqsadini ko'zlasa, yordamchi ta'sirning vazifasi dialogik o'zaro munosabatga kirishishni ta'minlashdan iborat. Ushbu munosabat ko'zlangan pragmatik vazifa, masalan, muloqot uchun xizmat qiladi. Fikrimizcha, undash nutqiy akti vositasida amalga oshiriladigan dalillash harakati ham yordamchi ta'sirning ma'lum bir turidir. Qiyoslang: *„Wir alle sind uns, glaube ich, einig, dass das Steuersystem ergiebig sein soll, damit der Staat seine Aufgaben erfüllen kann. Es soll zudem einfach und gerecht sein. Aber es muss auch fair sein. Ein Steuersystem ist dann fair, wenn jeder, dem das Gesetz die Last der Steuerzahlung auferlegt, seine Steuern tatsächlich zahlt“.* (Ralph Brinkhaus (CDU/CSU), Deutscher Bundestag, 06.11.2014).

Ushbu misolda asosiy ta'sir undash pragmatik maqsadini voqelantiradi. Bunda *wir alle* olmoshining qo'llanishi tinglovchini rozi bo'lishga undaydi. Yordamchi ta'sir esa emotsional vaziyatni yaratishga yo'naltirilgan. Mazkur vaziyatda tinglovchida u yoki bu hissiyotni hosil qilish maqsadi rejalashtiriladi hamda bunga nutqqa yumshoq ohang bag'ishlovchi *ich glaube* subyektiv modallik shakliga murojaat qilish vositasida erishilgan.

Siyosiy arbob berayotgan xabarga adresatning kommunikativ-pragmatik munosabati ko'p jihatdan illokutiv nutqiy aktlar tanlovi bilan bog'liq. Siyosiy diskursda ishonirish mantiqiy mazmuni odatda iltimos, taklif, maslahat va boshqa turdagi illokutiv harakatlar bilan birikishi mumkin. Muhimi, ushbu nutqiy aktlar oshkora va tagma'noli ifodalanishi mumkin. Ishontirish maqsadiga ega diskurs tarkibida reprezentativ nutqiy akti ustunlik qiladi. Qiyoslang: *Je strittiger der Dialog ist, der im Petersburger Dialog stattfindet, je mehr Diskussionen es gibt und je breiter die Gesellschaft, auch die russische, darin repräsentiert ist, umso höher schlägt sein Herz und umso froher ist er* (Dr. Angela Merkel, Bulletin der Bundesregierung, 2. März 2010).

Shunday qilib, siyosiy diskurs murakkab tuzilishga ega kommunikativ hodisa bo'lib, uni voqelantiruvchi vosita siyosiy tildir. Uning doirasida siyosiy muloqot ishtirokchilari lisoniy qobiliyatini aks ettiruvchi siyosat tili faoliyat ko'rsatadi.

Siyosiy muloqot jarayonida so'zlovchilar tinglovchiga ishonirish, axborot yetkazish, nasihat berish, maslahat berish, ogohlantirish nutqiy harakatlari orqali

ta'sir ko'rsatadi. Foydalanilayotgan ijtimoiy taktikalarda adresatlar dunyoqarashini o'zgartirish maqsadi ko'zlanadi.

Ishning **“Intertekstual munosabatlarning siyosiy diskursda voqelanishi”**, deb nomlangan ikkinchi bobida intertekstuallik hodisasi va uning tarkibiy qismini hosil qiluvchi pretsedent tuzilmalar o'rganilgan. Bobda, shu jumladan, intertekstuallik va interdiskursivlikning o'zaro munosabati masalasi ko'rib chiqilgan, pretsedentlik tushunchasi va uni voqelantiruvchi lisoniy shakllar batafsil yoritilgan hamda pretsedent matnning siyosiy diskursda tutgan o'rni aniqlangan.

Postmodernizm yo'nalishi vakillari “intertekst” tushunchasi bilan bir qatorda “interdiskurs” atamasini ham qo'llaydilar. “Ularning ta'rificha, interdiskurs zamonaviy diskurs tahlili doirasida taklif qilingan tushuncha bo'lib, uning mazmunida aslida diskurs hududidan tashqarida bo'lgan unsurlarni ham qamrab oluvchi semantik jihatdan muhim bo'lgan diskursiv yaxlitlikni yaratish hodisasi aks topadi”.¹⁶ Boshqacha aytganda, ma'lum bir diskurs yoki uning biron bir bo'lagining boshqasi tarkibiga kiritilishi interdiskurs sifatida qaraladi.

Ko'pchilik tadqiqotchilar intertekstuallikni matnning kategorial belgisi sifatida talqin qilish tarafdori. U yoki bu belgi kategoriallik maqomini olishi uchun u barcha turdagi matnlarga xos bo'lishi kerak.

Kognitiv-diskursiv yo'nalish doirasida intertekstuallik tushunchasi interdiskursivlik tushunchasi bilan o'zaro bog'liqlikda talqin qilinadi. Hozirgi paytda tilshunoslar “diskurs=nutq+matn” formulasini taklif qilishib, bunda diskurs umumiy tushuncha, matn esa uning bir ko'rinishi, turi ekanligini qayd etmoqdalar.¹⁷ Diskurs hodisasining bunday maqomda talqin qilinishi matni diskursiv faoliyat mahsuli sifatida tavsiflashga undaydi.¹⁸ Shunday ekan, interfaollik, aksiologiklik, adresatlik, intensiallik (maqsadlilik), vaziyatlilik, protsessuallik kabilar diskursning asosiy belgilaridir.¹⁹ Mazkur belgi-xususiyatlarga asoslangan holda, interdiskurs hodisasini boshqa mantlarning “izi” ko'rinadigan nutqiy tuzilma sifatida tavsiflash mumkin.

Interdiskursiv aloqadorlik, ayniqsa, siyosiy, diniy, tarixiy va boshqa turdagi gumanitar muloqot sohalarida keng miqyosda rivojlangan. Masalan, nemis tilida nashr qilinadigan **„Stern“** oynomasida siyosiy kurashdagi mag'lubiyat *Waterloo* atamasini olgan: *Der gescheiterte Gipfel (in Brüssel) gilt als „Waterloo“ Europas. Nach dem Waterloo kommt der „Lagerkampf“* (Stern).

Diskurs mohiyatan madaniy belgiga ega tuzilmadir va ushbu lisoniy vositalar tanlovida namoyon bo'ladi. Matn ma'lum bir madaniy voqelikni aks ettiradi va unda lingvomadaniyat doirasida hukumron bo'lgan nutqiy faoliyat qonun-qoidalari, talablari voqelanadi.

Pretsedentlik hodisasi keyingi yillarda ko'plab tilshunoslar diqqatini jalb qilmoqda. Ushbu muammo Yu.N.Karaulov, Yu.A.Sorokin, V.V.Krasnix, D.B.Gudkov, D.U.Ashurova, M.R.Galiyeva, D.Xudoyberganova va boshqa bir

¹⁶ Постмодернизм: Энциклопедия. – М.: Интерпресссервис, 2001. – С. 336.

¹⁷ Богданов В.В. Текст и текстовое общение. – СПб.: Изд-во СПб-го у-та, 1993. – С. 5.

¹⁸ Макаров М.Л. Основы теории дискурса. – М.: Гнозис, 2003. – С. 90.

¹⁹ Кубрякова Е.С. Язык и знание. – М.: Языки славянской культуры, 2004. – С. 528; Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002. – с. 272; Normuradova N.Z. Ingliz badii diskursida antropotsentriзмning verbal eksplikatsiyasi. Filol. fan. dokt.... diss. avtoref. – T., 2020.- B. 17.

qator olimlarning ishlarida muhokama qilingan. Interdiskursiv hodisalarga nisbatan bunday qiziqish tarixiy-madaniy ildizga ega. Zotan, hozirgi kunda pretsedentlik atamasini olgan ushbu hodisa turli lingvomadaniy jamoalarga xos bo'lib har qanday milliy til tizimida mavjudir. Pretsedentlik muloqotning har qanday qismida namoyon bo'ladi va muloqot samarasini ta'minlovchi shartlardan biridir. Uni lisoniy universalialar qatoriga kiritish kerak. "Pretsedent matn" tushunchasini iste'molga birinchilardan bo'lib Yu.N.Karaulov kiritgan. Uning fikricha, quyidagi turdagi matnlar pretsedentlik maqomiga ega bo'lishi mumkin: a) u yoki bu shaxs uchun emosional va gnoseologik jihatdan ahamiyatli; b) alohida shaxsga tegishli bo'lishi shart emas; v) ma'lum lisoniy shaxs diskursida bir necha marotaba murojaat qilinadigan.²⁰ Pretsedentning siyosiy diskursda namoyon bo'lishini o'rgangan N.A.Nemirovaning²¹ taxmin icha, ushbu hodisa turli shaxslar, faktlar, mifologiya, san'at yodgorliklarini baholashning etnomadaniy xususiyatlarini aks ettiradi. V.V.Krasnix pretsedent hodisalarini universal va milliy-madaniy guruhlarga ajratadi. Universal pretsedent hodisalar insoniyatning har qanday vakili uchun tanish bo'lsa, milliy-madaniylari bilan faqat ma'lum bir lingvomadaniy jamoa a'zolari tanish bo'lishi mumkin.²² Shuningdek, "jamoaviy pretsedent hodisalar"ni alohida guruhga ajratish mumkin. Ular milliy madaniyat bilan unchalik bog'liq bo'lmasa-da, biroq alohida jamoaning kognitiv maydonidan o'rin oladi.

Mazkur turdagi hodisalar ma'lum bir jamoaning har qanday vakili uchun tanish bo'lishi shart. Jumladan, Injilning matni har qanday nasroniy jamoasi uchun pretsedentlik xususiyatiga ega. M.R.Galiyevaning nazdida, mifologik-diniy manbaga ega pretsedent matnlar barchaga ma'lum hamda dunyo va insonning yaratilishi, birodarkushlik, Odam ato va Momo havoning jannatdan quvilishi haqidagi rivoyatlar hamda payg'ambarlar, masalan, Avraam (Ibrohim), Moisey (Musu), Iosif (Yusuf), Daniil (Doniyor), Iov (Ayub), Muhammad va boshqalar haqidagi hikoyatlar barchaga tanishlik jihatidan universal pretsedent matnlardir.²³ Diniy manbalardan o'zlashtirilgan pretsedent birliklar odatda ko'proq badiiy asarlarda uchraydi, lekin publisistik va siyosiy nutqi ham ushbu xususiyatdan xoli emas.

Lisoniy shaxs ongida individual, milliy-madaniy, ijtimoiy, universal kabi turli ko'rinishdagi bilimlar mavjud bo'ladi. So'zlovchi shaxs ushbu bilim turlariga erkin murojaat qilish imkoniyatiga ega. Mazkur bilim turlari nutq jarayonida har xil lisoniy vositalar orqali faollashadigan kognitiv tuzilmalarning shakllanishiga imkon beradi. Nutqiy muloqotning har qanday ko'rinishida so'zlovchi rejadagi kommunikativ vazifa yoki pragmatik mo'ljalga erishish uchun pretsedent birliklardan foydalanadi. Ushbu birliklar kasbiy muloqot sharoitida maxsus vazifani bajarishga ko'mak beradi.

²⁰ Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. – М.: Наука, 1987. – С. 216.

²¹ Немирова Н.В. Прецедентность и интертекстуальность в политическом дискурсе//Лингвистика, №7. – М., 2004. – С. 149.

²² Красных В.В. Этнопсихоллингвистика и лингвокультурология. М.: Гнозис, 2002. – С. 51.

²³ Галиева М. Р. Теоллингвистика. Истории, направления, перспектива – Т.: VneshInvestProm, 2018. – С. 148.

Siyosiy diskurs rasmiy xarakterga ega muloqot turlaridan bo‘lib, uning kechishida insonlar jamiyatda qabul qilingan ijtimoiy me‘yorlarga amal qiladilar. Pretsedent birliklar xuddi shunday vositalar qatoriga kiradi hamda turli pragmatik vazifalarni bajarishi mumkin.

Siyosiy diskursning formal-lisoniy qatlami ko‘p jihatdan uning intertekstual va interdiskursiv munosabatlari bilan bog‘liq. Muloqot jarayonida yuzaga keladigan turli matnlar o‘rtasidagi aloqani Yu.Klayn o‘z paytida “matnlar o‘rtasidagi munosabat” (**Text-Text-Relationen**) deb atagan edi. Olim keyinchalik ushbu munosabatni matnlar intertekstualligi sifatida talqin qildi.²⁴

Pretsedent matn, murakkab semiotik belgi sifatida, takrorlanish va stereotiplik xususiyatiga ega va unga muloqot jarayonida ma‘lum ko‘rinishdagi nutqiy tuzilmalarda ifoda topgan ramzlar, obrazlar orqali murojaat qilinadi. Bunday xususiyatga ertak, mif, doston, afsona, rivoyat, badiiy adabiyot namunalari va diniy asarlar ega.

Pretsedent matnga murojaat qilishning asosiy turlaridan biri – iqtibos keltirishdir. **Textverstehen** (“matnni izchil o‘qish va tushunish”) nazariyasiga binoan, iqtibosning siyosiy diskursda muhim rol bajarishini e‘tirof etish kerak bo‘ladi. Zero, iqtibos, xuddi boshqa pretsedent birliklar kabi siyosatchilar kognitiv-diskursiv qobiliyati shakllanishida alohida o‘rinni egallaydi.

Qiyoslang: *Mashhur xitoy faylasufi Sun Szining hikmatli bir gapi bor: “Soliqlarni haddan ziyod kuchaytirish turli talon-tarojlikni keltirib chiqaradi, dushmanlarning boyishiga xizmat qiladi, oqibatda, davlat inqirozga uchraydi”* (Sh. Mirziyoyev. Niyati ulug‘ xalqning ishi ... 2019:67);

Wenn man nicht so genau weiß, worüber man reden soll, redet man über alles, was einem gerade durch den Kopf geht. ... Es hat mich aber an einen Spruch von Hölderlin erinnert, der da lautet: „Es tönt hohl im innersten Hain.“ Das war meine Erfahrung bei Ihrer Rede, Herr Kollege (Prof. Dr. Matthias Zimmer, Plenarsitzung im Deutschen Bundestag am 30.11.2018).

Keltirilgan misollardan ko‘rinadiki, siyosiy diskursda keng tarqalgan iqtibos turi – bu tugallangan fikrni ifodalovchi yaxlit nutqiy tuzilmadir. Biroq, iqtibos har doim ham biron-bir matning to‘liq, so‘zma-so‘z takrori bo‘lavermaydi. U ba‘zan boshqaning fikrini o‘z so‘zlari bilan aytib berish ko‘rinishiga ega bo‘lishi mumkin.

Qiyoslang: a) *Chindan ham, bugun Yangi O‘zbekiston, Uchinchi Renessans degan iboralar g‘oya emas, balki aniq maqsadga aylanib bormoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ta‘biri bilan aytganda, bu borada buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy darsturga aylanishi kerak.* (Rahmatov, Zaripov 2021:8-9); b) *Ohne Freiheit keine Kunst: Das Zitat stammt von Albert Camus ... Der französische Autor und Philosoph hat sich vielmehr in seinem gesamten künstlerischen und essayistischen Werk Gedanken über ideologische Begrenzungen gemacht, darüber, was die Künstler in ihrem Schaffen gängelt, ihre Phantasie und Kreativität lähmt. Die Kunst, schrieb er, lebt*

²⁴ Klein J. Textsorten im Bereich politischer Institutionen//Text und Gesprächlinguistik. Ein internationales Handbuch zeitgenössischer Forschung. Bd. 16.- Berlin: de Gruyter, 2000. – 884 S.

nur von den Beschränkungen, die sie sich selbst auferlegt (Wolfgang Schäuble, Festrede 18.06.2021).

Ma'lumki, siyosiy nutqning asosiy vazifasi jamiyatdagi biron bir vaziyatga nisbatan jamoatchilik fikri, dunyoqarashini shakllantirishdan iborat. Bu maqsadga yetishish uchun so'zlovchi yoki yozuvchi shaxs aytilayotganlarni isbotlovchi dalillarni topishi kerak. Har qanday turdagi iqtibos dalillash strategiyasini amalga oshirishga qodir. Bunda axborotning obyektivligini isbotlash hamda keltirilayotgan dalillar, faktlarning aniqligini ta'kidlash maqsadi rejalashtiriladi. So'zlovchilar faktlar manbasini ko'rsatish orqali o'z fikrini tasdiqlashga harakat qiladi.

Keltirilgan iqtiboslar manbasi turli ko'rinishga ega bo'lishi kuzatiladi. Tadqiqotchilar odatda quyidagi turdagi manbalarni farqlaydilar: alohida shaxs, alohida bir jamoa (umumlashtirilgan manba) va me'yoriy hujjat.

Qiyoslang: *Konstitutsiya mustaqil O'zbekistonning rasmiy "tashrif" qog'oziga aylandi. U dunyo siyosiy xaritasida yangi demokratik davlat - O'zbekiston Respublikasining Prezidenti aytganidek, "Hech bir davlat o'zining asosiy qonunida davlat va jamiyat qurilishi tamoyillarini, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, jamiyat taraqqiyotining iqtisodiy asoslari va strategik yo'nalishlarini mustahkamlamasdan turib, haqiqiy suveren davlat bo'la olmaydi"* (Saidov 2012:9); „Es schmerzt mich, die Welt in diesem Zustand zu sehen. Aber nichts dagegen zu tun, es nicht zu versuchen, wäre verwerflich“. Das sind die Worte des letzten überlebenden Chefanklägers der Nürnberger Prozesse, Benjamin Ferencz, der im April im Alter von 103 Jahren verstorben ist. Sein ganzes Leben lang trat er dafür ein, den Opfern grausamster Verbrechen Gerechtigkeit widerfahren zu lassen und eine Welt auf der Grundlage der Macht des Rechts zu bauen (Annalena Baerbock, Rede von Außenministerin ... 18.07.2023).

Keltirilgan iqtiboslar nufuzli shaxs fikriga murojaat qilish namunasi bo'lib, ularda muallifning nomi va lavozimi eslatilmoqda.

So'zlayotgan siyosatchi uchun alohida shaxs fikridan ko'ra jamoaning kechayotgan voqealarga munosabati muhim bo'lganida iqtibos va uning manbasi umumlashgan xarakterga ega bo'ladi. Bu turdagi iqtibos ba'zan birmuncha ishonarli va nufuzli eshitiladi. Quyidagi iqtiboslarni qiyoslaymiz:

1) *Hammamiz yaxshi tushunamizki, bu maqsadga yetish uchun tinimsiz mehnat qilish kerak, ulkan g'oya va maqsadlar bilan yashash, hech qachon to'xtamaslik kerak. Chunki donishmandlar aytganidek,*

“To'xtaganning - o'tirgisi keladi.

O'tirganning yotgisi keladi.

Yotganning esa - uxlagisi keladi”.

Shu sababli, doimo harakatda bo'lish kerak. (Sh. Mirziyoyev. Inson qadri. ... 2022:95).

2) *... Schon die alten Griechen wussten, dass „man die Zukunft nicht voraussagen, aber auf sie vorbereitet sein kann“.* *Deshalb glaube ich, dass dieser Kongress an der richtigen Stelle und am richtigen Platz ist.* (Dr. Angela Merkel, Rede von Bundeskanzlerin auf dem Kongress des Stifterverbandes für die Deutsche Wissenschaft. - Berlin, 18. Mai 2009).

Iqtibos manbasi me'yoriy-rasmiy hujjat bo'lganida siyosatchi ushbu hujjatga oddiygina murojaat qilib qolmasdan, balki tinglovchini bayon qilinayotgan fikrga ishonirish maqsadini ko'zlaydi.

Qiyoslang: *Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili Ombudsman to'grisidagi qonunning 1-moddasida ko'ra, Ombudsmanning qonun hujjatlarini takomillashtirishga ko'maklashish bo'yicha vazifalari qonun hujjatlari loyihalarining inson huquqlari sohasidagi xalqaro standartlarga muvofiqligini o'rganish natijasida amalga oshiriladi* (Ko'chimov 2012:43); *Wie schaffen wir es, dass das Ziel der Globalisierung endlich Gerechtigkeit für alle und nicht nur Reichtum für wenige wird? Eine Antwort darauf, wie wir diese Trendwende erreichen können, gibt ein Bericht von der internationalen Nord-Süd-Kommission an den Generalsekretär der Vereinten Nationen. Darin heißt es: „Wir dürfen uns nicht beschränken auf die „klassischen Fragen nach Krieg und Frieden. Sondern wir müssen daran arbeiten, wie man den Hunger in der Welt besiegt, wie man das Massenelend überwindet und die herausfordernden Ungleichheiten in den Lebensbedingungen zwischen Reichen und Armen“* (Sigmar Gabriel, Rede bei der 72. Generalversammlung der Vereinten Nationen, 21.09.2017).

Yuqoridagi iqtiboslardan me'yoriy hujjatlarga murojaat qilish muallifga o'z nufuzini tasdiqlash imkonini berishi ma'lum bo'ladi. Qonuniy hujjatlardan iqtibos keltirish siyosiy diskursda ancha keng tarqalgan holatdir, zero ushbu manba eng nufuzli manba hisoblanadi.

Siyosiy muloqot jarayonida nufuzli fikr manbasi sifatida ko'pincha diniy mavzudagi matnlarga ham murojaat qilinadi. Jumladan, o'zbek va nemis siyosatchilari uchun Qur'on va Injil shunday manba vazifasini bajaradi.

Intertekstuallik belgisi turli matnlar o'rtasidagi aloqadorlikni ta'kidlash uchun xizmat qiladigan alohida vositalardan foydalanish paytida yuzaga keladi. Intertekstual aloqa odatda maxsus ko'rsatkichlarga ega bo'ladi va ushbu ko'rsatkichlar vazifasini ko'pincha sarlavha, epigraf, iqtibos, frazeologizm, qanotli so'zlar, aforizm va boshqa hodisalar bajaradi.

Dissertatsiyaning **“Turg'un strukturali pretsedent tuzilmalarning siyosiy diskursda faollashuvi”** deb nomlangan uchinchi bobida qanotli so'zlar, maqollar va frazeologizm ko'rinishidagi pretsedent birliklarning siyosiy diskursda qo'llanishi tahlil qilingan.

Siyosiy muloqot jarayonida nutqiy va aqliy ta'sir o'tkazish maqsadida odatda tilning turli sathlariga oid turg'un birikma, stereotip tuzilma, neologizm hamda metaforik iboralardan foydalaniladi. Ushbu birliklarning barchasi pretsedent tuzilma vazifasini o'tashi mumkin va ular orasida asosiy o'rinni stereotip tuzilmalar egallaydi. “Qanotli iboralar” yoki “qanotli so'zlar” deb ataluvchi tuzilmalar ham shular qatoriga kiradi. Ular fikrni lo'nda va aniq ifodalash, hodisa, vaziyat, munosabatlarni o'tkir va o'rinli tavsiflash imkoniga ega. Qanotli iboralar – dastavval ma'lum bir tarixiy shaxs (yozuvchi, olim, siyosiy arbob va boshq.) tomonidan aytilgan va keyinchalik turg'unlashgan nutqiy tuzilmadir.

Germaniyada nashr qilingan lug'atlarda nemis tili sohiblari uchun yaxshi tanish bo'lgan va hozirgi paytda “mualliflik” belgisini yo'qotgan ko'plab qanotli iboralarni uchratish mumkin. Masalan: *auf Sand bauen* – “qunning ustiga

qurmoq” (“ishonchsiz dalillarga suyanmoq”), *mit Füßen treten* – “poymol qilmoq”, *wie ein Mann* – “misli bir kishidek”, *Öl ins Feuer gießen* – “olovga yog‘ sepmoq” (“gijgijlamoq”) va boshqa.

To‘plangan material tahlilidan ma’lum bo‘lishicha, bu ko‘rinishdagi “qanotli iboralar” asosan badiiy nutqda qo‘llanib, ushbu turdagi pretsedent iboralar siyosiy diskursda kam miqdorda faollashadi.

Qiyoslang: *Farzandlarimizning qobiliyatini ro‘yobga chiqarishga bolalikdan e’tibor berib, ularning kamoloti uchun barcha imkoniyatlarimizni safarbar etsak, yurtimizdan yana ko‘plab Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar yetishib chiqadi. Men bunga ishonaman* (Sh.Mirziyoyev. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. T., 2019:76); *Die Harvard-Studentin gilt als Genie und wird als der „neue Einstein“ gefeiert — und das in ihrem jungen Alter* (Business Insider, 2018).

Siyosatchilar murojaat qiladigan pretsedent nomlar ko‘pchilikka tanish matn yoki vaziyat bilan bog‘liq alohida shaxslar nomi bo‘lib, ular ko‘p holatlarda ramz maqomini oladi.²⁵ Shuningdek, pretsedent nomlar lingvomadaniy kategoriyani tashkil qilishi va ko‘pincha so‘zlovchining ma’lum bir lingvomadaniyatga taalluqli ekanligi haqida tasavvur paydo qilishi mumkinligini ham unutmazlik kerak. Aforizmlar o‘z struktur va funksional-semantik xususiyatlari bilan ushbu mezonlarga to‘lig‘icha mos keladi va shu sababli ularni alohida qanotli iboralar guruhiga ajratish mumkin.

Nutqiy tuzilmaning kutilmagan shaklda bo‘lishi va axborotning yangiligi bilan aforizm o‘quvchi diqqatini jalb qiladi. Fikr ifodasining to‘satdan boshqa ko‘rinish olishi va kutilmaganda aforizmga murojaat axborotni oldga surish tamoyillariga asoslanadi. Bunday tamoyillar qatoriga muqobillik, kontrast, takror, konvergensiya kabilar ham kiradi. Bundan tashqari, aforizm estetik qiymatga ega. Qiyoslang: *Biz oddiy bir haqiqatdan kelib chiqmoqdamiz: xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy, jamiyat ham boy va qudratli bo‘ladi* (O‘zbekiston ovozi, 2016, yanvar); *Vielmehr möchte ich mit einem weiteren Konfuzius-Zitat schließen, das auch passt, weil Sie, lieber Herr Mutlu, auch von Wegen gesprochen haben. Konfuzius sagt nämlich: „Wenn du siehst, dass dein Ziel noch fern ist, dann fang an, dich auf den Weg zu machen.“ Meine Damen und Herren, CDU/CSU und SPD sind bereits auf dem Weg* (Sven Volmering, Redebeitrag. ... 02.10.2015).

Ko‘rinadiki, so‘zlovchilar o‘z fikrining muhimligiga ishontirish uchun boshqa arboblardan, siyosatchilardan tomonidan aytib ketilgan qanotli iboralarga murojaat qilishadi. Aforizmlardan bu yo‘sinda foydalanish uzatilayotgan axborotning pragmatik samarasini ta’minlaydi.

V.V.Bogdanovning ta’biricha, muloqot ishtirokchilari tildan foydalanish jarayonida, lisoniy vositalardan tashqari, ma’lum bir jamoada qabul qilingan qonuniyat-qoidalar, axloqiy-etik me’yorlarga ham e’tibor qaratadi.²⁶ Ushbu qoida va me’yorlar muloqot shart-sharoitlariga nisbatan o‘ziga xos kontekstni hosil

²⁵ Гудков Д.Б. Теория и практика межкультурной коммуникации. – М.: Гнозис, 2003.- С. 108.

²⁶ Богданов В.В. Речевое общение: прагматические и семантические аспекты. – СПб.: Изд-во СПб. государственного университета, 1990. – С. 80.

qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, tildan o‘rinli foydalanish nutqiy xatti-harakatning lingvomadaniy xususiyatlarini o‘z ichiga olishidan xabar beradi.

Masalan: *Barchamizga ma'lumki, islohotlarimiz natijalari bo'layotgan o'zgarishlar va aholining kayfiyati, avvalo, mahallada seziladi. Shu ma'noda, "Mahalla - jamiyatimizning yorug' yuzi va vijdoni ko'zgusi", desak, to'g'ri bo'ladi* (Sh. Mirziyoyev. *Yangi O'zbekiston taraqqiyoti strategiyasi*, 2022:91).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning nutqida qo‘llangan „Mahalla – jamiyatimiz yorug‘ yuzi va vijdoni ko‘zgusi“ qanotli iborasi, so‘zsiz, aforizm xarakteriga ega va uning faollashuvi uchun ma‘lum lingvomadaniy kontekst bo‘lishi shart.

Siyosiy diskurs lingvomadaniy kategoriya ekanligi ayon. Buni, masalan, nemis siyosiy arboblari nutqida salbiy bo‘yoqdor va suhbatdoshni xafa qiladigan, hatto ba‘zan uni haqorat qiladigan qanotli iboralar (shu jumladan, aforizmlar) uchrab turadi. Qiyoslang:

Die CDU steht am Ende des Jahres 2004 ungleich schlechter da als zu Jahresbeginn. Das hat auch damit zu tun, daß die starken Männer in der CDU – also die Kochs, Wulffs, Müllers, Merzens und Schäubles sich weitgehend zurückgelehnt und beobachtet haben, wie ihre Anführerin sich schlägt (Berliner Zeitung, 23.12.2004).

Bu kabi nutqiy matnlarda ma‘lum ko‘rinishdagi ritorik amallar, lisoniy tuzilmalar va shakllarning qo‘llanishini so‘zlovchining hissiyotlari, emotsional holati bilan bog‘liq holda izohlash mumkin. Mazkur shakllar ko‘pincha faqat yagona bir lingvomadaniyat doirasida ma‘lum bo‘lishi kuzatiladi. Asosiysi, ma‘lum bir madaniyatga xos ushbu turdagi ritorik amallar va formulalarning muqobilini boshqa madaniyatda topish qiyin. Jumladan, o‘zbek siyosiy muloqoti uchun xayrixohlik, xotirjamlik belgilari xosdir. Bunday muhitda muloqotning, albatta, o‘zaro hurmat va hamjihat ruhida kechishi tayin.

Pretsedent tuzilmalar orasida maqol va matallar alohida o‘rinni egallaydi. Albatta, maqollar rasmiy ko‘rinishdagi diskursdan ko‘ra insonlarning kundalik muloqotida, badiiy ishlov berilgan og‘zaki nutq matnlarida ko‘proq uchraydi. Siyosiy-publisistik janrdagi nutqda maqollar diskursning eng ahamiyatli o‘rinlarida paydo bo‘ladi va shu yo‘sinda uzatilayotgan axborotga yakun yasaladi. Ushbu holatda ular baholash vazifasini bajaradi. Masalan: *Qo‘pol qilib aytganda, "Bersang – yeyman, ursang o‘layman" qadimda davlat tomonidan beriladigan yordam imidjida kun o‘tkazish kayfiyatida yashayotganlar oramizda topiladi. Xo‘sh, bunday sharoitda bu toifa insonlarning hayotiy qarashlarini, maqsadlarini o‘zgartirish, ijtimoiy faolligini uyg‘otish davlat va jamiyat uchun koni foyda-ku! Qolaversa, qo‘l bilan berganga qush to‘ymas, deydilar* (Xalq so‘zi, 2023, 7 iyun); *Meine Damen und Herren, ich kenne ein afrikanisches Sprichwort, das für unsere gemeinsamen Gespräche über Demographie gut passt. Es lautet: "Die beste Zeit, einen Baum zu pflanzen, war vor zwanzig Jahren. Die zweitbeste Zeit ist jetzt."* (Horst Köhler, *Rede von Bundespräsident bei der Konferenz ... 6. Dezember 2005*).

Proverbial iboralar ba‘zan diskursda boshlang‘ich o‘rinni egalashi ham kuzatiladi va bunda ular ifodalanayotgan fikrning asosiy mazmunini ta‘kidlash

vazifasini bajaradi. Shu asnoda, maqollar, pretsedent tuzilma sifatida tagma'noning muhim qismini anglashga yordam beradi.

Pretsedent tuzilmalar, shu jumladan, paremiyalar, turli variantdagi undash harakatlarini ifodalashga hissa qo'shadi. Ushbu harakatlar, o'z navbatida, qat'yiligi, emotsionallik bo'yog'i darajasi bilan o'zaro qiladi.

Maqollar pragmatik samaraga erishish va adresatga ta'sir ko'rsatish imkoniyati bilan o'zaro farq qiladi. Maqollar vositasida, shuningdek, g'oyaviy-estetik ta'sir mo'ljali ham voqelanadi. Ammo pragmatik mo'ljal kommunikativ-ijtimoiy vaziyat bilan bog'liq holda o'zgarib turadi va nutqiy muloqot samarasi turlicha ko'rinish olishi mumkin.

Qiyoslang: *“Bilagi zo'r birni yengadi, bilimli zo'r - mingni” degan maqolida chuqur ma'no bor. Shu nuqtai-nazardan, Qurolli Kuchlarimizni modernizatsiya qilish, xususan, harbay ta'lim sohasiga zamonaviy bilim, ilg'or xorijiy tajribalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha boshlagan ishlarimizni yangi bosqichga ko'tarishimiz zarur* (Sh. Mirziyoyev. Niyati ulug', xalqning ishi ham ulug'... 2019: 373).

Maqollar, pretsedent tuzilma maqomiga ega hodisa sifatida, ijtimoiy-kommunikativ hamkorlik munosabatiga kirishish vositasi rolini bajaradi. Maqol matnida, bir tomondan, voqelikning konseptual mazmuni aks topsa, ikkinchi tomondan, so'zlovchining tinglovchiga ta'sir ko'rsatish borasidagi niyati voqelanadi va xuddi shu holat siyosiy diskursning pragmatik mo'ljalini shakllantiradi.

Siyosiy diskurs jamoaviy ongga ta'sir ko'rsatish maqsadida qo'llaniladigan frazeologizmlarga boy. Frazeologik birliklarning siyosiy diskursda faollashuvida, birinchidan, voqealarga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabat shakllansa, ikkinchidan, muallif (so'zlovchi)ning kechayotgan hodisani baholashda tutgan mavqesi yaqqol ifoda topadi va nihoyat xalq bilan aloqa yo'lga qo'yiladi, yaqinlashuv yuzaga keladi.²⁷ Bularning barchasi frazeologizmlarning siyosiy diskursda voqelanishi masalasini kommunikativ-pragmatik tahlil usuli tatbiqida o'rganishning istiqbolidan darak beradi.

Ma'lumki, frazeologizmlar axboriy-nominativ va pragmatik-kommunikativ vazifalarni bajaradi. Aynan oxirgi vazifa frazeologik birlik faollashuvi uchun muhimdir. Fikrimizcha, frazeologik iboralarning pragmatik vazifalari qatoriga fatik va emotsional undash hamda estetik t'sir, dalillash, fikrni shakllantirish vazifalarini ham kiritish ma'qul.

Turg'un lisoniy birliklarning emotsional-baholash vazifasi doirasida subyektning biron-bir_narsa-hodisaga munosabati voqelanadi va bu ayniqsa siyosiy diskursda yaqqol namoyon bo'ladi.

Qiyoslang: *Bizning maqsadimiz - birgalikdagi mehnatimiz bilan Yangi O'zbekistonda har tomonlama rivojlangan, obod va farovon Yangi Qoraqalpog'istonni bunyod etishdir. Asrlar davomida et va tirnoq kabi bir bo'lib ketgan xalqlarimiz do'stligini hech qanday kuch ta'sir ko'rsata olmaydi. Chunki*

²⁷ Zubareva N.S. Siyosiy diskursda frazeologik intensifikatorlarning kognitiv-pragmatik xususiyatlari (ingliz, rus va o'zbek tillari misolida). Filol. fan. bo'yicha falsafa dokt. diss. avtoreferati. – T., 2023. – 61 b.

bizning otmishimiz bir, bugunimiz kelajagimiz ham bir (Yangi O‘zbekiston, 2022, 21-dekabr); *...es ist das Vorspiel zum sozialistischen Schlaraffenland...*”;

“... *in dieses Wespennest will die Bundeskanzlerin nicht stechen...*” («Die Zeit», 2017.08.03).

Siyosiy diskurs doirasida kechadigan nutqiy muloqot muhitida ta’sir ko’rsatish va ishontirish vazifasi ustivorlik qiladi. Frazeologizmlar nutqiy tuzilmaning dalillash va axborotning eng muhim qismini ta’kidlash imkoniyatini kengaytiradi. Frazeologizmlarning siyosiy muloqot vaziyatida dalillash vazifasini doimiy ravishda bajarishi va so‘zlovchi frazemadan o‘z nuqtai nazarini asoslash hamda isbotlash maqsadida foydalanishini frazeologik tizimning barchaga yaxshi tanishligi bilan izohlash lozim.

1) *Shu ishlarimizning davomi sifatida Qarshi davlat universiteti qoshidagi Abu Muin Nasafiy nomidagi Ilmiy markaz tashkil etsak, allomalarimiz merosini xalqimizga, yoshlarimizga keng tanitishga yana bir muhim qadam qo‘ygan bo‘lamiz*. (Sh. Mirziyoyev. Inson qadri, uning huquq va erkinliklari... :236);

2) *Herr Erler ruft dazwischen. Das ist derjenige, der am Montag gesagt hat: Am Freitag wird die Koalition durch ein Fegefeuer gehen. - Ich erkläre Ihnen das mit dem Fegefeuer gern einmal. Durch das Fegefeuer geht man nur, wenn man vorher heftig gesündigt hat, Herr Kollege. So ist das!* (Dr. Guido Westerwelle, Rede vom 16.11.2001, http://documentarchiv.de/brd/2001/rede_westerwelle_1116.html).

Dalillash amali ma’lum turdagi rasional usullari orqali oshirilganida u turlicha natijaga olib kelishi mumkin. Shunday natijalardan biri xulosa qilishdir. Shu sababli frazeologik birlikning argumentativ (dalillash) va xulosa qilish funksiyalari o‘zaro yaqinligini taxmin qilish mumkin. Zotan, frazeologizm o‘z mazmuniga ko‘ra “oldin aytilganning qisqacha xulosasini taqdim etadi”.²⁸ Qiyoslang:

1. *Shavkat Mirziyoyev 10 kun ichida ikki nafar vazir hamda bir qancha vazir o‘rinbosarlari ishdan bo‘shatilganiga to‘xtaldi. Qolaversa, davlat rahbari ikki nafar bosh vazir o‘rinbosarlarining "oxirgi hayfsan bilan zo‘rg‘a ishda qolganini" aytdi. "Aravani tortmasa, ketishi kerak", - dedi Prezident. "Nimaga aravani tortmasa ketishi kerak? Aravani tortish uchun mahalliy hokimiyat idoralari fidoiy bo‘lishi kerak. Ularga nisbatan mahalla raisi 10 karra bo‘lishi kerak”, deya ta’kidladi Shavkat Mirziyoyev* (Gazeta uz, 2021).

2. *Der Kollege Herdt von Ihnen hat diese oder letzte Woche im Menschenrechtsausschuss gesagt, die Bundesregierung müsse den Demonstrierenden in Belarus auf den Zahn fühlen, wer hinter ihnen stecke – als ginge es nicht um Menschenrechte* (Omid Nouripour (Grüne), 18.09.2020 - <https://opendiscourse.de/volltextsuche>).

Bizning kuzatishimizcha, frazeologizmlarning ular funksional-pragmatik imkoniyatlari namoyon bo‘ladigan vazifasi siyosiy muloqot muhitida ham faollashadi. Masalan, *“Deutschland hat eine lange Tradition als Land der Erfinder, aber Deutschland darf die Hände nicht in den Schloss legen; der Staat sollte sich Mühe geben, den Bürgern deutlich zu machen, dass ihm von seiner*

²⁸ Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – Москва, Дубна, 2005. – С. 138.

Mehranstrengen ein signifikanter Teil bleibt” nutqiy tuzilmalarida „*die Hände in den Schloss legen*” (bekor o‘tirmoq) va “*sich Mühe geben*” (harakat qilmoq) frazeologik tuzilmalari qo‘llanilgan. Bir-biriga nisbatan antonimik munosabatda bo‘lgan ushbu turg‘un birikmalar yuqoridagi nutqiy tuzilmalarni yagona bir matn tarkibida birikuviga turtki bergan.

Intensifikativ (ta’kidlash) vazifasini bajarayotgan frazeologizmlar siyosiy diskursning “bilimlarni taqdimning kognitiv tuzilmalar bilan muqobillashuvi orqali jamoaviy ongga maqsadli ta’sir ko‘rsatish”²⁹ kabi asosiy pragmatik mo‘ljalni voqelantiruvchi vositadir.

Qiyoslang: *Barchamizga ma’lumki, islohotlarimiz natijalari, bo‘layotgan o‘zgarishlar va aholining kayfiyatini, avvalo, mahallada seziladi. Shu ma’noda, “Mahalla - jamiyatimizning yorug‘ yuzi va vijdoni ko‘zgusi”, desak, to‘g‘ri bo‘ladi. Shuning uchun barcha darajadagi rahbarlar pastga tushib, o‘z sohasi bo‘yicha mahallalardagi muammolarni o‘rganishi va ularga yechim topishi, natijani ta’minlashi shart* (Sh.Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi, 2022:91).

Ushbu diskurs parchasida “*pastga tushmoq*” frazeologik intensifikatorining qo‘llanishi orqali pragmatik samarasi darajasi oshgan va auditoriyaga ta’sir o‘tkazish imkoniyati kuchaygan.

Frazeologizmlardan foydalanish qobiliyati siyosiy faoliyatning muhim jabhasi hisoblanadi. Mazkur qobiliyat siyosatchining individual nutqiy xususiyatlarga ega bo‘lgan va barkamol rasmiy xodim maqomidagi lisoniy shaxs sifatida shakllanishiga imkon beradi. Shuning bilan birgalikda, uning frazeologik shaklga ega bo‘lgan nutqiy faoliyati ma’lum lingvomadaniyatga xos xususiyatlarni aks ettiradi.

Xullas, siyosiy diskursda tinglovchiga ta’sir o‘tkazish uchun tez-tez qo‘llanib turiladigan lisoniy vositalar orasida turg‘un birikma, stereotip tuzilma, emotsional-ekspressiv birlik kabilar muhim o‘rinni egallaydi. Ushbu birliklar qatoridan metaforik ko‘chim, qanotli ibora, aforizm, maqol, frazeologizm kabi pretsedent tuzilma rolini o‘taydigan birliklarga alohida o‘rin ajratiladi.

XULOSA

1. Siyosiy arboblarning nutqiy faoliyati ko‘p miqdorda stereotiplashgan yoki turg‘un qolipga ega bo‘lgan pretsedent tuzilmalar qo‘llanishi bilan ajralib turadi. Buning boisi siyosiy muloqot jarayonida mamlakat ijtimoiy hayotiga oid turli-tuman mavzudagi masalalar muhokama qilinishidir. Xuddi shu xolat “ideologemalar” deb ataluvchi siyosiy mavzudagi lug‘aviy birliklarning keng ko‘lamda faollashuviga sabab tug‘diradi.

2. Siyosiy diskursda, rasmiy muloqotning alohida turi sifatida, ma’lum ko‘rinishdagi lisoniy vositalardan foydalaniladi va u tilning o‘ziga xos tagtizimini tashkil qiladi. Siyosiy diskursning asosiy farqlovchi xususiyatlari sifatida quyidagilarni qayd etish mumkin: ma’lum bir nuqtai nazarni tinglovchi ongiga

²⁹ Zubareva N.S. Siyosiy diskursda frazeologik intensifikatorlarning kognitiv-pragmatik xususiyatlari (ingliz, rus va o‘zbek tillari misolida). Filol. fan. bo‘yicha falsafa dokt. diss. avtoreferati. – T., 2023. – B. 34.

singdirishga yo'naltirilgan baholash va bahslashish xususiyati, ushbu turdagi muloqot jarayonida o'z fikrini qat'iy ta'kidlash orqali samaraga erishish maqsadi ham ko'zlanadi. Bundan tashqari, siyosiy diskurs ideologik ko'pma'nolilik va haqiqatga intilish xususiyatlariga ham ega.

3. Siyosiy muloqotda ko'zlanadigan asosiy maqsad adresatni ishontirish va uni ma'lum bir harakatga undashdir. Siyosat tili tashviqot yuritish, hissiy ta'sir ko'rsatish hamda jamoa roziligiga erishish uchun xizmat qiladi. Mazkur turdagi muloqot ijtimoiy cheklovlar va nutqiy tuzilmaning me'yor talabiga javob berishi bilan bog'liq mezonlar asosida olib boriladi. Ushbu nazorat me'yorlari nutqiy ta'sir ko'rsatish strategiyasi va taktikasini tanlash yo'llarini belgilaydi. Nutqiy ta'sir, o'z navbatida, ishontirish, isbotlash hamda uqtirish ko'rinishlariga ega bo'lishi mumkin.

4. Siyosiy diskurs tuzilishi va tarkibining o'ziga xosligi bir qator lisoniy va nolisoniy omillar bilan izohlanadi. Siyosiy mazmunga ega matn, kommunikativ hodisa sifatida, ma'lum ko'rinishdagi vazifaviy, uslubiy va pragmatik jihatlari bilan namoyon bo'ladi. Shu asnoda, siyosiy diskurs lingvostilistika, pragmatika, sotsiolingvistika va boshqa gumanitar fanlarning tadqiq obyektiga aylanadi.

5. Siyosiy diskurs tarkibida uchraydigan o'ziga xos hodisalarning sezilarli qismini ushbu turdagi diskursning intertekstual aloqalarini ta'minlaydigan lisoniy vositalar tashkil qiladi. Mazkur aloqalar iqtibos, aforizm, frazeologik birliklar, qanotli so'zlar, paremiyalar ko'llanishi orqali shakllantiriladi va rivojlantiriladi.

6. Nemis va o'zbek tillaridagi siyosiy diskurslarda pretsedentlik xususiyatiga ega tuzilmalar ifodalanayotgan fikrga ishontirish hamda siyosiy arbob nutqining ahamiyatini ta'kidlash maqsadida ishlatiladi. Bunday holatda pretsedent tuzilmalar dalillash va isbotlash vazifalarini bajaradi. Bularning barchasi, albatta, siyosiy diskursning kommunikativ-pragmatik mohiyatida namoyon bo'ladi.

7. Pretsedentlik maqomiga ega bo'lgan turg'un tuzilmalarning nutqiy faollashuvi aniq bir muloqot vaziyatida ko'zlanilayotgan pragmatik maqsad shartlari bilan bog'liq. Bundan tashqari, har qanday pretsedent tuzilma turli muloqot vaziyatida turlicha qabul qilinishi va talqin qilinishi mumkin. Demak, so'zlovchi shaxs, u yoki bu pretsedent birlikni qo'llayotib, muloqot vaziyati bilan bir qatorda ushbu birlikning pragmatik imkoniyatlarini ham inobatga olishi zarur.

8. Alohida tillarga xos pretsedent tuzilmalar tizimlari o'z lingvomadaniy mohiyati bilan farq qiladi. Ushbu farqlar ayniqsa siyosiy muloqot alohida bir turi bo'lgan rasmiy muloqot jarayonida yaqqol ko'zga tashlanadi. Siyosiy diskursning o'ziyoq butun mohiyati bilan lingvomadaniy kategoriyadir. Shu bois, pretsedentlik xususiyatiga ega bo'lgan turg'un lisoniy tuzilmalardan foydalanishda milliy mentalitet, madaniy-aksiologik qadriyatlar, shuningdek, axloqiy, ijtimoiy me'yorlarning ta'siri kuchlidir.

9. Siyosatchilar nutqiy faoliyatida pretsedent birliklarning voqealanishi bilan bog'liq muammolarni istiqbolda o'rganishda quyidagilarga e'tibor qaratish tavsiya qilinadi: siyosiy diskursda faollashadigan pretsedent tuzilmalarning kognitiv xususiyatlarini belgilash; siyosiy diskursning etnopsixolingvistik va lisoniy-madaniy jihatlari tavsiflash; intertekstuallik hodisasi lisoniy belgilarining

lingvostilistik xususiyatlarini turli tizimdagi tillar misolida o‘rganish; siyosiy matnlarni tarjima qilish usullari va tamoyillarini aniqlash.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ
PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01. ПРИ САМАРКАНДСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ИНСТИТУТЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ИНСТИТУТ
ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

САФАРОВА МАХДУМАХОН ЖАХОНГИРХОН ҚИЗИ

**ПРАГМАТИЧЕСКИЕ И ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ
АСПЕКТЫ ФУНКЦИОНИРОВАНИЯ ПРЕЦЕДЕНТНЫХ
ОБРАЗОВАНИЙ В ПОЛИТИЧЕСКОМ ДИСКУРСЕ
(на материале немецкого и узбекского языков)**

10.00.06. – Сравнительное литературоведение, сопоставительное языкознание и переводоведение (филологические науки)

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2024.1.PhD/Fil2294.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном институте иностранных языков. Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещён на веб-странице научного совета по адресу www.samdhti.uz и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» по адресу www.ziyonet.uz.

Научный руководитель:

Киселёв Дмитрий Анатольевич
доктор филологических наук, доцент

Официальные оппоненты:

Бушуй Татьяна Анатольевна
доктор филологических наук, профессор

Холияров Лутфулла Ташкуватович
кандидат филологических наук, доцент

Ведущая организация:

Бухарский государственный университет

Защита диссертации состоится «19» августа 2024 года в 9⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 при Самаркандском государственном институте иностранных языков. (Адрес: 140104, г. Самарканд, улица Бустонсарой, 93. Тел: (99866) 233-78-43; факс: (99866) 210-00-18; e-mail: info@samdhti.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного института иностранных языков (зарегистрирована за номером 758). Адрес: 140104, г. Самарканд, улица Бустонсарой, 93. Тел.: (99866) 233-78-43.

Автореферат диссертации разослан «31» июля 2024 года
(Протокол реестра рассылки за № 6 от «30» июля 2024 года)



А.А.Яхшиев

Председатель научного совета по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

Г.К.Мирсанов

Учёный секретарь научного совета по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук (DSc), доцент

Н.З.Насруллаева

Заместитель председателя научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В эпоху глобализации, когда культурные, экономические, политические связи между народами мира становятся все более тесными и прочными, приоритетной задачей становится установление научно–практической характеристики специфики каждого национального языка, его самобытности, проявляющейся на разных уровнях. При этом язык следует рассматривать как важное средство общения между людьми, но и феномен, воплощающий культуру, ценности, мысли и взгляды народа, который его использует. Поэтому одной из важнейших задач мировой лингвистической науки в настоящее время является разработка инновационных методов исследования проблем, связанных с речевой деятельностью представителей различных сфер деятельности. При этом основное внимание уделяется неразрывной связи языковых явлений с культурой, мировоззрением и мышлением носителей языка. В последние годы также возрастает необходимость охарактеризовать взаимосвязь дискурса и политической деятельности. В связи с этим приоритетной задачей лингвистики стало установление онтологической и эпистемологической природы политического дискурса, а также определение прагматических и лингвокультурных особенностей этого типа дискурса.

В мировом языкознании в результате развития таких современных направлений, как лингвокогнитология, прагмалингвистика, лингвокультурология, дискурсология, значительно расширяется круг вопросов, привлекающих внимание исследователей. В ведущих научных центрах активно исследуется проблематика возникновения дискурсов в различных формах и их речевой реализации. Широкомасштабное изучение речевых явлений позволяет раскрыть их природу, а также дифференцировать специфические аспекты этих явлений. Актуальность тематики настоящего исследования определяется необходимостью систематического изучения и последовательного описания особенностей возникновения прецедентных единиц в структуре политического дискурса.

В настоящее время в нашей стране проводятся реформы, нацеленные на перспективное развитие в различных сферах. Укрепление социально-политических и культурно-экономических отношений со многими странами мира демонстрирует, что важным фактором социокультурного прогресса является исследование и анализ особенностей политической и межкультурной коммуникации. Как отмечает Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев, сегодня Узбекистан стал одним из важнейших центров мировой политики, и это признано международным политическим сообществом.³⁰ В этих условиях расширяется возможность широкомасштабного внедрения достижений современной науки в практику, так как подобный вопрос одновременно становится решающим фактором

³⁰ Послание Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева к Олий Мажлису Республики Узбекистан на 2023 год. Режим доступа: <https://review.uz/uz/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-2023-yil-uchun-murojaatnomasi-toliq-matn>

повышения благосостояния страны, устойчивого развития всех сфер жизни государства и общества. В связи с этим сравнительное изучение структуры и факторов актуализации политического дискурса в немецком и узбекском языках является одной из актуальных научных проблем современного языкознания.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, установленных в Указах Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28 января 2022 года «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы», № УП-5850 от 21 октября 2019 года «О мерах по кардинальному повышению авторитета и статуса узбекского языка в качестве государственного языка», № УП-5847 от 8 октября 2019 года «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», Постановления Президента Республики Узбекистан № ПП-5117 от 19 мая 2021 года «О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан», Постановления Кабинета Министров Республики Узбекистан №75 от 10 февраля 2020 года «О дополнительных мерах по организации деятельности центра исследований развития высшего образования и внедрения передовых технологий при Министерстве высшего и среднего специального образования Республики Узбекистан», а также в других нормативно-правовых актах.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики. Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий в Республике Узбекистан I - "Формирование системы инновационных идей и пути их реализации по социальному, правовому, экономическому, культурному, духовно-просветительскому развитию информационного общества и демократического государства".

Степень изученности проблемы. Проблемы прагмалингвистики и лингвокультурологии рассматриваются в работах J. Mey, G. Leech, L. Cummings, S. Schmidt, D. Wunderlich, И. П. Сусова, А.Ю. Масловой, Г.Г. Матвеевой и др., А. Wierzbicka, G. Palmer, Н.Ф. Алефиренко, Н.Е. Болдырева, В.В. Воробьева, В.В. Красных, А.Т. Хроленко, М.Л. Ковшовой.³¹ В нашей

